



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 1

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2026

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'affor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)  
**Umarxonova Dildora Sharipxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nematov Jo'rabek Nematilloevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)  
**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)  
**Mexmonov Kambariddin Miradxamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)  
**Borut Strazisar**  
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliyev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzayev Aziz**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Taxirov Farhod**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)  
**Qo'shayev Nurali Mahmudovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govxerjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

**1. Kutpiddinov Xusniddin Muxiddinovich**

ETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNI JOYLASHTIRISH SHAKLLARINING HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....5

**2. Авлиякулова Матлуба Авазовна**

КОРПОРАТИВ-ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ.....13

**3. Раҳимкулова Лола Улуғмуродовна**

ИШ ТАШЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ МУНОСАБАТ СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ. ҚОНУНЧИЛИҚДА НАЗАРДА ТУТИЛГАН КАФОЛАТЛАР.....21

**4. Karimova Nigina Botirjon qizi**

YO‘QOLIB KETISH XAVFI OSTIDAGI YOYVOYI FAUNA VA FLORA TURLARINI MUHOFAZA QILISHDA VASHINGTON (CITES) KONVENSIYASINING HUQUQIY ANAMIYATI.....28

**5. Xakberdiyev Nurali Salaxiddinovich**

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING PROFESSIONAL FAOLIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR.....35

**6. Turayev Jo‘rabek Shonazarovich**

JORIY SHAROITLARDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH FAOLIYATINING ILMIIY-NAZARIY TAVSIFI.....43

**7. Hojiyev Nosirjon Komilovich**

YO‘L HARAKATI VA TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH QOIDALARINI BUZGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....50

**8. Рузиев Маъруфжон Муртазаевич**

ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИНОИЙ ЖАЗОЛАРНИНГ ЛИБЕРАЛЛАШУВИ – ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ.....58

**9. Orakbayev Erpolat Temirbay ugli**

TERGOV SUDYASI INSTITUTI: SHAKLLANISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....65

**10. Husanboev Sardor Abdugarimovich**


YOSHLAR O‘RTASIDA EKSTREMISTIK TAHDIDLARNING PROFILAKTIK CHORATADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....72

**11. Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o‘g‘li**

KRIMINOLOGIK SIGNAL TIZIMI (REAL-TIME ALERTS): SUN‘IY INTELLEKT ASOSIDA JINOYAT XAVFINI OLDINDAN ANIQLASH VA PROFILAKTIKA QILISH MODELII.....82

**12. Курбонов Давлат Равшанович**

ШАХС ОЗОДЛИГИГА ҚАРШИ ЖИНОЯТ СОДИР ЭТГАН ШАХСНИНГ ИЖТИМОИЙ-БИОЛОГИК ТАВСИФИ.....87




**12.00.06-ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО**

**Karimova Nigina Botirjon qizi,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti  
E-mail: niginakarimova20010914@gmail.com

**YO‘QOLIB KETISH XAVFI OSTIDAGI YO‘VVOYI FAUNA VA FLORA TURLARINI MUHOFAZA QILISHDA VASHINGTON (CITES) KONVENSIYASINING HUQUQIY AHAMIYATI**

**For citation:** Karimova Nigina Botirjon kizi. THE IMPORTANCE OF THE WASHINGTON CONVENTION (CITES) IN THE LEGAL PROTECTION OF ENDANGERED WILD FAUNA AND FLORA. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18509334>

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarini huquqiy muhofaza qilishda “Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to‘g‘risida”gi Konvensiyaning ahamiyati, konvensiyaning yaratilish tarixi, bunday turlar bilan xalqaro savdo munosabatlarida CITES talablari va konvensiya tomonlariga yuklatilgan majburiyatlar, CITESning mamlakatimizdagi ma‘muriy hamda ilmiy organi faoliyati, CITES ilovalari haqida hamda qonunchiligimizga CITESning qay darajada integratsiyalashganligi, implimentatsiyalashganligi haqida fikr boradi. Qolaversa, muallif tomonidan mavzuga doir takliflar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** xavf ostidagi turlar, CITES Konvensiyasi, fauna, flora, kamyob turlar, noqonuniy savdo.

**Каримова Нигина Ботиржон кизи,**  
Докторант Ташкентского государственного юридического университета  
E-mail: niginakarimova20010914@gmail.com

**ЗНАЧЕНИЕ ВАШИНГТОНСКОЙ КОНВЕНЦИИ (CITES) В ПРАВОВОЙ ОХРАНЕ ДИКОЙ ФАУНЫ И ФЛОРЫ, НАХОДЯЩИХСЯ ПОД УГРОЗОЙ ИСЧЕЗНОВЕНИЯ**

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются вопросы правовой охраны диких видов фауны и флоры, находящихся под угрозой исчезновения. Анализируется значение Конвенции «О международной торговле видами дикой фауны и флоры, находящимися под угрозой исчезновения,» история создания данной конвенции, требования CITES и обязательства, возложенные на стороны Конвенции в сфере международной торговли такими видами. Освещается деятельность административного и научного органов CITES в нашей стране,

даётся информация о приложениях CITES, а также высказываются мнения о степени интеграции имплементации требований CITES в национальное законодательство. Кроме того, автором предлагаются предложения по рассматриваемой теме.

**Ключевые слова:** исчезающие виды, Конвенция СИТЕС, фауна, флора, редкие виды, незаконная торговля.

**Karimova Nigina Botirjon kizi,**

Doctoral Researcher at Tashkent State University of Law

E-mail: niginakarimova20010914@gmail.com

## THE IMPORTANCE OF THE WASHINGTON CONVENTION (CITES) IN THE LEGAL PROTECTION OF ENDANGERED WILD FAUNA AND FLORA

### ANNOTATION

This article examines issues of the legal protection of wild fauna and flora species that are under the threat of extinction. It analyzes the significance of the Convention on International Trade in Endangered Species of wild fauna and flora (CITES), the history of the Convention's establishment, the requirements of CITES and the obligations imposed on the Parties to the Convention in the field of international trade in such species. The article also discusses the activities of the administrative and scientific authorities of CITES in our country, provides information on the CITES Appendices and expresses views on the extent to which CITES requirements have been integrated and implemented into national legislation. In addition, the author puts forward proposals related to the subject matter.

**Keywords:** endangered species, CITES Convention, fauna, flora, rare species, illegal trade.

Jamiyatda shunday sohalar borki, unda salmoqli natijaga erishishda hamkorlik, xususan, xalqaro sherikhilik juda katta va muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday sohalaridan biri bu, shak-shubhasiz, ekologiya sohasidir. Hech qaysi davrda ekologiya dolzarbligi bugungiday bong urmagan. Sababi, iqlim o'zgarishi, cho'llanish, degradatsiya, bioxilmaxillikning tobora yo'qolib ketayotganligi, xavf ostidagi turlarning soni kundan-kunga oshib borayotganligi insoniyatning yashash sharoitiga ta'sir etib, odamlarning tabiatga nisbatan qilgan barcha xatti-harakatlariga oz bo'lsa-da, ortga qarashga undadi.

Bugun insonlarning tabiat resurslaridan, shuningdek, hayvonot va o'simlik olamidan xo'jasizlarcha foydalanishi oqibatida juda ko'plab noyob turlar xavf ostida qolmoqda. Achinarlisi, ayrim qimmatbaho turlar butun yer yuzida butkul yo'q bo'lib ketgan.

Mamlakatimizdagi har qanday huquqiy munosabatlarning qonuniy poydevori, albatta, bosh qomusimiz – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 68-moddasi birinchi qismida belgilab qo'yilganidek, “yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi va boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir.” [1]

Xalqimizda “Buloq suvi qurimaguncha inson uning qadriga yetmaydi” degan maqol bor. Asrlar davomida inson o'zining taraqqiyot jarayoni bilan birga ekologiya inqirozi jarayonini tezlashtirdi. Bugun jahon hamjamiyati iqlim o'zgarishini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri deb e'tirof etmoqda.

Afsuski, dunyo bo'yicha kuzatilayotgan iqlim o'zgarishi atrof-muhitning turli sohalariga salbiy ta'sir yetkazaypti. Dunyo mamlakatlari uning oldini olish uchun qonuniy va amaliy chora-tadbirlarni ko'rmoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham bu borada tizimli reja asosida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda.

Shu o'rinda, avvalo, Konstitutsiyamizning 62-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar [2]”, deya belgilab qo'yilganini ta'kidlab o'tish o'rinlidir.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta‘minlash maqsadida 2019-yil 30-oktabrda “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident farmoni qabul qilindi.

Interpolning beradigan ma‘lumotlariga ko‘ra, yovvoyi fauna va flora turlarining kontrabandasi ularga qo‘yiladigan pul hajmiga ko‘ra, narkotiklar kontrabandasidan keyingi ikkinchi o‘rinni egallaydi.

Davlat o‘zini oldiga qo‘ygan biror maqsadiga erishish uchun u yo‘lida, albatta, turli islohotlar qilishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi 1995-yildan buyon “Biologik xilma-xillik to‘g‘risida”gi Konvensiyaga a‘zo va mana shu yildan beri mamlakatimiz konvensiya majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda o‘z zimmasiga olgan. Konvensiya davlatlarning biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha strategiyalar, reja va dasturlar ishlab chiqishni ham nazarda tutadi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 484-sonli “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi to‘g‘risida”gi Qarori mavjud bo‘lib, ushbu strategiya mana shu yillar davomida ekoturizmni rivojlantirishni, rekreatsion zonalarini ko‘paytirishni, biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishning yoki mavjud rejalar va dasturlarga moslashtirishning milliy strategiyalari, rejalari va dasturlarini ishlab chiqishni, tanazzulga uchragan ekotizimlarni tiklash hamda kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarni tiklash chora-tadbirlarini ko‘rishni va boshqa asosiy masalalarni hal etishni ko‘zlaydi.

Strategiyada ta‘kidlanganidek, antropogen ta‘sirlar ostida kuchayib borayotgan ekotizimlarning umumiy tanazzuli va fragmentatsiyasi areallarning va ham kamyob, ham resurs turlarning soni qisqarishiga olib keldi. Bunday turlar yovvoyi tabiatda yo‘qolib ketish xavfiga ega va Qizil kitobga kiritish uchun tavsiya etilgan. O‘zbekiston bioxilma-xilligi turfa xildagi 27 ming o‘simlik va hayvonot turlaridan iborat. Hayvonlarning 207 ta turi va kenja turlari kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turli toifalarga kiritilgan, ulardan 184 tasi O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan (2009-y.), ulardan sut emizuvchilarning 24 turi, qushlarning 48 turi, reptiliylarning 16 turi, baliqlarning 17 turi, bo‘g‘imli chuvalchanglarning 3 ta turi, molyuskalarning 14 ta turi va bo‘g‘imoyoqlilarning 60 turi mavjud[3].

O‘zbekiston hamda Markaziy Osiyoda 53 tur endem va quruqlikdagi umurtqali hayvonlarning kenja turlari ham mavjud.

Aytish o‘rinliki, O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga 314 ta o‘simlik turi kiritilgan bo‘lib, bunda yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlar soni 19 % dan 10 %ga kamaygan. Shuningdek, 15 ta endem va noyob turlar Qizil kitobdan joy olgan.

So‘nggi 50 yil ichida dunyo bo‘ylab biologik xilma-xillik 68 %ga kamayib ketgan. Ayni damda O‘zbekiston hududida 206 tur fauna hamda 314 tur flora turlari yo‘qolib ketish xavfi ostida hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasi birinchi qismida belgilab qo‘yilganidek, yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Bizni o‘rab turgan atrofimizdagi olamning tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiiy resurslar va umuman tabiatni, uning betakrorgini saqlab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan sa‘y-harakatlar ekologiyani muhofaza qilish hisoblanadi. Insoniyat paydo bo‘libdiki, tabiiy resurslardan har xil maqsadlarda foydalanib keladi. Natijada o‘simlik va hayvonot olamining sezilarli darajada kamayib borishiga, hattoki ayrim turlar sonining butkul yo‘qolib ketish xavfi yuzaga kelmoqda.

Ekologiya huquqi huquqning shunday sohasiki, u hamkorlikni talab etadi. Chunki ekologiyadan kelib chiqadigan ta‘sir doirasi faqat bitta davlatgagina tegishi emas. Masalan, iqlim o‘zgarishi, muzliklarning erishi, bioxilmaxillikning yo‘qolib ketayotganligi, atmosfera havosining isloflanishi, suv tanqisligi, cho‘llanish va hokazolar.

2019-yil 30-oktabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi”da IV maqsadli vazifa sifatida biologik resurslarni muhofaza qilish va ularni qayta tiklash belgilandi. Bunda “qizil kitobga kiritilgan va pitomniklarda parvarish qilingan chiroyli

tuvaloqlarni tabiatga qo‘yib yuborishni yiliga 4000 gacha ko‘paytirish – 2030-yilga qadar kutilayotgan natijalar qatoridan o‘rin oldi.[4]”

CITES ya‘ni yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlar va o‘simliklar turlari bilan xalqaro savdo qilish to‘g‘risidagi Konvensiyani yaratish g‘oyasi 1960-yillarga borib taqaladi. 1960-1970-yillarda jahonda ekzotik hayvonlarning noqonuniy savdosi avj oladi. Bu esa tabiatda ayrim turlar sonining keskin kamayib ketishiga olib keldi va aynan shu sababli butun dunyo olimlari va tabiatni muhofaza qiluvchi organlarni fauna va floraning xalqaro savdosini tartibga solish to‘g‘risidagi xalqaro shartnoma ishlab chiqishga undadi.

1972-yilda Shvetsiyada bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha Stokgolm konferensiyasida hayvonot va o‘simlik dunyosi muhofaza ostiga olinishi haqida qayd etildi va mazkur konferensiya Konvensiya ishlab chiqilishi yo‘lidagi ilk turtki bo‘ldi.

1973-yilning 03-mart kuni Amerika Qo‘shma Shtatlarining Vashington shahrida 80dan ziyod mamlakat vakillari ishtirokida CITES Konvensiyasi imzolandi. Ushbu xalqaro Konvensiya butun dunyoda yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro noqonuniy savdosiga barham berish, yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarning xalqaro savdosini tartibga solish va shu orqali xavf ostidagi turlarni muhofaza qilishni maqsad qilib oldi.

CITES Konvensiyasi 1975-yilning 01-iyul sanasidan kuchga kirgan. Dastlabki yillarda ushbu Konvensiyani 10 ta davlat ratifikatsiya qilgan bo‘lsa, endilikda bu ko‘rsatgich 174 taga oshgan. Ya‘ni 2025-yil holatiga ko‘ra, CITES konvensiyasining a‘zo davlatlari soni 184 ta mamlakatni tashkil qiladi.

Xalqaro huquqdan yaxshi ma‘lumki, davlat birorta xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilishi orqali o‘z zimmasiga shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni oladi. O‘zbekiston Respublikasi CITES ya‘ni yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlar va o‘simliklar turlari bilan xalqaro savdo qilish to‘g‘risidagi Konvensiyani 1997-yilning 08-oktabr kuni imzolagan va o‘z zimmasiga yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari bilan bog‘liq noqonuniy savdoni to‘xtatish, bu kabi turlarni muhofaza qilish kabi majburiyatlarni olgan.

Vashington Konvensiyasidagi “Xalqaro savdo” jumlasini konvensiyaning uchchala ilovasida nazarda tutiluvchi fauna va flora obektlarini bilan bog‘liq eksport, import, re-eksport hamda dengizdan introduksiyasini anglatadi. Mazkur konvensiyada fauna va flora turlari jami 3 ta ilovada jamlangan bo‘lib, bunda barcha ilovalar bir-biridan o‘zaro muhofaza qilinish darajasiga ko‘ra farqlanadi. Ma‘lumot o‘rnida aytish joizki, Vashington Konvensiyasi ilovalariga har 3 yilda bir marta konvensiya ishtirokchisi bo‘lgan mamlakatlar ya‘ni tomonlar konferensiyasi tomonidan aniqlik kiritiladi.

Konvensiyaning I ilovasi yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan fauna va flora turlarini o‘z ichiga olib, bunday turlarni tijorat maqsadida eksport, import va re-eksport qilish ta‘qiqlangan. II ilova esa o‘zida hozirgi vaqtda yo‘qolib ketish xavfi osti bo‘lmasa-da, lekin, ushbu turlar namunalari bilan savdo qilish ulardan mazkur ilovaga kiruvchi turlarning yashab qolishiga imkon bermaydigan tarzda foydalanilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida qat‘iy tartibga solinmasa, yo‘qolib ketish xavfi ostida qolishi mumkin bo‘lgan turlarni namoyon etadi. Konvensiyaning III ilovasi esa har qanday tomon ta‘rifiga ko‘ra, fauna va flora turlaridan foydalanishning oldini olish va yoki cheklash maqsadida uning yurisdiksiyasi doirasida tartibga solinishi lozim bo‘lgan hamda mazkur turlar bilan bo‘ladigan savdoni nazorat qilishda boshqa tomonlar hamkorligi talab etiladigan turlarni qamrab oladi. Konvensiyaning I ilovasiga mansub turlar bilan bog‘liq munosabatlarda CITESning eksport/import uchun ruxsatnomasi, II ilovasidagi turlar uchun eksport ruxsatnomasi, so‘nggi ilovasidagi turlar uchun esa kelib chiqish sertifikatini olish talab etiladi.

Aytish o‘rinliki, barcha ilovalarga kiritilgan yovvoyi fauna va flora namunalari bilan bog‘liq eksport, import va re-eksport munosabatlari uchun ruxsatnomalar CITESning ma‘muriy organi tomonidan beriladi. O‘zbekiston Respublikasida CITESning ma‘muriy organi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hisoblansa, ilmiy organi esa, Fanlar Akademiyasi hisoblanadi.

CITESning Ma‘muriy organi – atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ijro etuvchi hokimiyatning maxsus vakolatli organi hisoblanib, ushbu ma‘muriy organga Vashington

Konvensiyasi talablarini bajarish vazifalari, shu jumladan, arizalarni ko‘rib chiqish, ruxsatnomalar berish, shuningdek, kotibiyatga hisobot tayyorlash hamda tomonlar konferensiyasiga materiallar tayyorlash va boshqa vazifalar yuklanadi.

Mamlakatimiz yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarini huquqiy muhofaza qilish, ularni saqlab qolish, biologik xilma-xillikni asrab-avaylash, ular bilan yuzaga keladigan munosabatlarni xalqaro shartnoma asosida tartibga solish va nazorat qilinishini ta‘minlash qilish maqsadida CITES konvensiyasiga qo‘shilgan bo‘lishimizga va mamlakat o‘z zimmasiga majburiyatlar olganligiga qaramay, yo‘qolib ketish xavfi yuqori bo‘lgan fauna va flora turlari bilan bog‘liq noqonuniy savdolar, brakonerlik kabi holatlar juda ko‘p uchramoqda. Undan tashqari, qonun hujjatlarimizga CITES qoidalari yetarli darajada integratsiya qilinmagan. Bunday turlarni muhofaza qilish va nazorat qilishdagi muhim hujjatlardan biri bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining Qizil Kitobiga kiritilgan barcha turlarni CITES ilovalariga moslash kerak, deb hisoblaymiz. Bu biror turni muhofaza qilish va uni monitoring qilish, muhofaza natijasidan xabardor bo‘lish imkonini beradi. Yevropa mamlakatlarida bunday zaif turlarni monitoring qilish va shu orqali mazkur turga kiruvchi fauna va flora olamini muhofaza qilish ancha rivojlangan. Monitoring qilish orqali flora va fauna holatini bilish va ularga xavf uyg‘otuvchi omillardan xabardor bo‘lish, ularning yashash muhitini baholay olish, asosiysi, brakonerlik va qonun buzilish holatlarini aniqlash va ushbu monitoring natijalariga qarab, bunday turlarni muhofaza qilishning yangi strategiyasini ishlab chiqish imkoniga ega bo‘lishadi. Xususan, monitoring qilish maydon tadqiqotlari, avia monitoring, satellit monitoring va genetik monitoring usullari yordamida amalga oshiriladi.

Ekologiyamizdagi barcha turlarni biz “ekologik zanjir” deb ta‘riflasak, xato bo‘lmaydi. Zero, har bitta tur tabiatda o‘zining ekologik funksiyasiga ega bo‘lib, biror turning yo‘qolib ketishi yoinki yo‘qolib ketish xavfi ostida qolishi, albatta, boshqa bitta turning xavf ostida qolishiga hamda ekotizim holatining yomonlashuviga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham tabiatdagi har bitta turni muhofaza qilish kerak bo‘ladi.

Aytish o‘rinliki, 24.11.2025-yildan 05.12.2025-yilga qadar CITES Konvensiyasi ishtirokchilarining 20-konferensiyasi mamlakatimizning Samarqand shahrida bo‘lib o‘tdi. Ya‘ni CITES o‘zining 50 yilligini ilk marta Markaziy Osiyoda nishonladi. Ushbu tomonlar konferensiyasida bir qator muhim masalalar, shu jumladan, bugungi kunda xavf ostida turgan yo‘l-yo‘l sirtlonni saqlab qolish bo‘yicha choralar, noyob va kamyob turlarning yashash muhitini himoya qilishda zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlarini namoyish etish, milliy va xalqaro tabiatni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash kabilar muhokama qilindi[5].

Xavf ostidagi turlarni muhofaza qilishda, avvalo, aholining ekologik madaniyatini oshirish darkor. Chunki, tan olib aytish joizki, bugun qanchadan-qancha yo‘qolish xavfi ostidagi turlar insonlarning ov qoidalarga amal qilmasliklari, brakonerlik qurboni bo‘lishmoqda. Vaholangki, ekotizimda biror bir turning xavf ostida qolishi bevosita boshqa turga salbiy ta‘sir etadi. Qolaversa, yurtimizda qo‘riqxonalar, biosfera rezervatlari sonini oshirish, xususiyl shirikchilikni rivojlantirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasida fauna va flora bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar bir qator qonun hujjatlari bilan bevosita tartibga solinadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Ov qilish va ovchilik xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa bir qator qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasida belgilab qo‘yilganidek, kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlar turlari O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritiladi hamda kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlarning turlari nobud bo‘lishiga, soni kamayib ketishiga yoki yashash muhiti buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarga (harakatsizlikka) yo‘l qo‘yilmaydi[6].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunining 22-moddasida yovvoyi holda o‘svuchi o‘simliklarni,

shuningdek, ularning qismlarini, yashash faoliyati mahsulotlarini va botanika kolleksiyalarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi beradigan ruxsatnomalar asosida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshirilishi, O‘zbekiston Respublikasiga g‘ayriqonuniy ravishda olib kirishga yoki O‘zbekiston Respublikasidan g‘ayriqonuniy ravishda olib chiqishga urinish chog‘ida ushlab qolingani yovvoyi holda o‘suvi o‘simliklar, shuningdek ularning qismlari, yashash faoliyati mahsulotlari va botanika kolleksiyalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda olib qo‘yilishi lozimligi belgilangan[7].

Sir emaski, mamlakatimizda ov qilish va ovchilik xo‘jaligi juda rivojlangan. O‘zbekiston Respublikasining “Ov qilish va ovchilik xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasi birinchi qismida belgilanganidek, yovvoyi hayvonlarni tutishga doir har yilgi kvota yovvoyi hayvonlarning ko‘p miqdorda tutiladigan turlariga, shuningdek, yovvoyi hayvonlarning kamyob va oz sonli turlariga nisbatan belgilanadi. Yovvoyi hayvonlarni tutishga doir kvota yovvoyi hayvonlar sonini hisobga olish ma‘lumotlari asosida belgilanadi. Yovvoyi hayvonlarning ko‘p bo‘lmagan miqdorda tutiladigan ommaviy turlariga nisbatan kvotalar belgilanmaydi[8]. O‘zbekiston Respublikasi hududida yovvoyi hayvonlarni ov qilish haq to‘lash asosida amalga oshiriladi[9]. Bu kabi belgilangan ekologik cheklovlar va soliqlar yovvoyi fauna turlari sonini barqaror miqdorda saqlashga xizmat qiladi. Bu kabi cheklovlarning o‘rnatilmasligi xavf ostidagi turlarning butkul yo‘qolib ketishiga va ekotizimning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Ekologik kvotalarning asl mohiyati ham yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna turlaridan foydalanishni qat‘iy tartibda solishni anglatadi.

Demak, hayvonot hamda o‘simlik turlarini chetga olib chiqish va yoki mamlakat hududiga olib kirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi tomonidan beriladigan ruxsatnoma asosida hamda hukumat tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, insoniyatning tabiatdan xo‘jasizlarcha foydalanishi oqibatida bugungi kunga qadar juda noyob bo‘lgan turlar butunlay yo‘q bo‘lib ketdi. Bu esa ekotizimga o‘zining salbiy ta‘sirini o‘tkazibgina qolmay, kelajak avlodlarning ana shu turlarni ko‘rish “huquq”idan mahrum etdi. Chunki, ona tabiat har bir davr uchun omonat bo‘lib, uni kelajakka ham yetkazib berish majburiyatini yuklaydi.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 68-modda, 30.04.2023-yil, <https://lex.uz/docs/-6445145/> (Constitution of the Republic of Uzbekistan, article 68, dated April 30.2023.)
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 62-modda, 30.04.2023-yil, <https://lex.uz/docs/-6445145/> (Constitution of the Republic of Uzbekistan, article 62, dated April 30.2023.)
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2019 yildagi 484-sonli “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi to‘g‘risida”gi Qarori, <https://lex.uz/ru/docs/4372839/> (Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No.484 dated June 11,2019 “On the Strategy for the Conservation of Biological Diversity of the Republic of Uzbekistan for 2019-2028”).
4. “Yashil iqtisodiyot”: Darslik.2-nashr, qayta ishlangan va to‘ldirilgan./i.f.d., prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: “ZEBO PRINT”, 2021.-264 b.// (“Green Economy”: Textbook, 2<sup>nd</sup> edition, revised and expanded, edited by Professor A.V.Vakhabov. – Tashkent: ”ZEBO PRINT” Publishing House, 2021 – 264 pages.)
5. <https://cites.org/eng/news/pr/cites-cop20-concludes-with-clear-roadmap-to-enhance-wildlife-trade-regulation-2025>
6. O‘zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, 17-modda, 19.09.2016 yil, O‘RQ-408, <https://lex.uz/acts/-3029502/> (Law of the Republic of Uzbekistan “On the Protection and Use of the Animal World”, article 17, dated September 19, 2016.)

7. O‘zbekiston Respublikasining “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, 22-modda, 21.09.2016-yil, O‘RQ-409, 22-modda, <https://lex.uz/acts/-3030362/> (Law of the Republic of Uzbekistan “On the Protection and Use of the Plant World”, article 22, dated September 21, 2016.)
8. O‘zbekiston Respublikasining “Ov qilish va ovchilik xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni, 08.07.2020 yildagi O‘RQ-627-son, 15-modda birinchi qism, <https://lex.uz/ru/docs/-4890112/> // (Law of the Republic of Uzbekistan “On Hunting and Hunting Management” , article 15, first part, 08.07.2020.)
9. O‘zbekiston Respublikasining “Ov qilish va ovchilik xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni, 08.07.2020 yildagi O‘RQ-627-son, 16-modda birinchi qism, <https://lex.uz/ru/docs/-4890112/> (Law of the Republic of Uzbekistan “On Hunting and Hunting Management” , article 16, first part, 08.07.2020.)
10. Yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlar va o‘simliklar turlari bilan xalqaro savdo qilish to‘g‘risidagi Konvensiya <https://cites.org/eng> (Convention on International Trade in Endangered Species of Wild Fauna and Flora (CITES))

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000